

**QORAQALPOQ MADANIYATI RIVOJIGA HISSA QOSHGAN TULEPBERGEN
QAYIPBERGENOV.**

Kenesbaev Rasul Jenisbay uli

*Ajinyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti Qoraqalpoq tili ham adabiyati
yonalishi 1-A kurs talabasi*

Raygul Jumabaeva Batirbay qizi

*Ajinyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti Qoraqalpoq tili ham adabiyati
yonalishi 1-A kurs talabasi*

Maxsetova Gulrux Saparbay qizi

*Ajinyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti Qoraqalpoq tili ham adabiyati
yonalishi 1-A kurs talabasi*

Annotatsiya: Mahoratli ijodkor, qalami o'tkir yozuvchi T. Qayipbergenovning asarlari o'zbek kitobxonlari orasida keng tarqalgan. Yozuvchi haqida uning hayot yo'li haqida ko'plab fikrlar yuradi. T. Qayipbergenov XX asr qoraqalpoq milliy adabiyotini rivojlantirish bilan birgalikda qoraqalpoq adabiyoti ilmining ham chuqur o'rgangan.

Kalit so'zlar: To'le'pbergen Qayipbergenov, yozuvchi, shoir, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Tulepbergen Qaipbergenov o'zining ko'rkam ijod namunalari bilan O'rta Osiyodagina emas, butun dunyo xalqlari adabiyotsevarlariga tanilgan yozuvchi. To'le'pbergen Qaipbergenov 1929 yili Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumanida tug'ildi. Mehnat faoliyatini 1947 yili maktab o'qituvchisi sifatida boshladi. Qoraqalpoq davlat pedagogika institutini tamomlaganidan so'ng ko'p yillik ijodiy va tashkilotchilik faoliyatini qoraqalpoq milliy matbuoti rivojiga bag'ishlab, "Qoraqalpaqstan jaslar?" gazetasi muharriri, "Qoraqalpaqstan" nashriyoti direktori, "Sovet Qoraqalpaqstan?" gazetasi muharriri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Radio eshittirishlar va televideniye qo'mitasi raisi, Matbuot, poligrafiya va kitob savdosi bo'yicha davlat qo'mitasi raisining o'rinbosari kabi mas'ul vazifalarda sidqidildan mehnat qildi. U 1980 yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining raisi lavozimida samarali faoliyat olib borib, qoraqalpoq adabiyoti va san'atini rivojlantirish, yosh shoir va adiblarni tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shdi. T. Qaipbergenov jamoat ishlarida ham faol ishtirok etib, bir necha bor Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi va Nukus shahar kengashi deputatligiga saylandi. Adib o'zining hikoyalari, qissalari, romanlari va dramalari, publitsistika janridagi maqolalari bilan XX asr qoraqalpoq adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo'shdi. XX asrning 50-yillaridan boshlab qoraqalpoq nasrida Tulepbergen Qaipbergenov nomi paydo bo'ldi. Yosh, iqtidorli qalamkash shu davrdan boshlab o'quvchilarga biri biriga o'xshamaydigan,

mavzu va badiiy-gʻoyaviy jihatdan dolzarb, qiziqarli boʻlgan asarlarini taqdim etilgan. Tulepbergen Qaipbergenovning hayoti va faoliyatini xalq Vatan nomi, sharafigi yuksaltirish, oʻz tarixi, madaniy-maʼnaviy meroslariga ehtirom, ajdodlarning orzu-intilishlari, ibratli ishlarini davom ettirish va avlodlarga muqaddas meros sifatida qoldirishning ibratli maktabi deyish mumkin. Uning badiiy mahorat namunalari darajasiga koʻtarilgan asarlari nomlari bilan sahifalar toʻlishi mumkin. Adib XX asr oʻrtalaridan umumbashariyat ekologik muammosiga aylangan Orol fojiasi va mintaqadagi ekologik masalalar bilan shugʻullangan, turkiy tilli xalqlarning oʻzaro qardoshligi borasida amaliy takliflar kiritgan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati jamgʻarmasini boshqargan ijtimoiy faol shaxs edi. Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq yozuvchisi Tulepbergen Qaipbergenov oʻzining koʻrkam ijod namunalari bilan Oʻrta Osiyodagina emas, butun dunyo xalqlari adabiyotsevarlariga tanilgan yozuvchi. Adib oʻzining hikoyalari, qissalari, romanlari va dramalari, publitsistika janridagi maqolalari bilan XX asr qoraqalpoq adabiyotining rivojiga ulkan hissa qoʻshdi. XX asrning 50-yillaridan boshlab qoraqalpoq nasrida Tulepbergen Qaipbergenov nomi paydo boʻldi. Yosh, iqtidorli qalamkash shu davrdan boshlab oʻquvchilarga biri biriga oʻxshamaydigan, mavzu va badiiy-gʻoyaviy jihatdan dolzarb, qiziqarli boʻlgan asarlarini taqdim etilgan. Tulepbergen Qaipbergenovning birinchi kitobi 1958-yil dunyo yuzini koʻrgan. Soʻngra “Kotiba”, “Muallimga rahmat”, “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” qissalari, “Soʻnggi hujum”, “Koraqalpoq qizi”, “Qoraqalpoq dostoni”, “Koʻzning qorachigʻi” romanlari, “Qoraqalpoqnoma” roman-esselari, “Sahro bulbuli” kabi asarlari chop etilib, rus, oʻzbek va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Tulepbergen Qaipbergenov oʻz xalqining shonli tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlarini avlodlarga yetkazish yoʻlida zahmat va izlanish bilan ijod qilgan adibdir. Uning “Qoraqalpoqnoma” (1986) (“Mamanbiy”, “Baxtsizlar”, “Sargardonlar”) trilogiyasini qoraqalpoq xalqi hayotining oʻziga xos badiiy-tarixiy talqini deyish mumkin. “Qoraqalpoqman-tavakkalchiman” asari, “Familiya” pesasi, “Berdaq” (“Sahro bulbuli”), “Oydoʻst bobo” dramatik asarlari oʻzbek, qozoq, rus tillariga tarjima qilinib, teatrlarda sahnalashtirilgan.

Yozuvchi Tulepbergen Qaipbergenov qoraqalpoq va oʻzbek adabiyotining rivojiga qoʻshgan beqiyos hissalarini uchun Qoraqalpogʻiston xalq yozuvchisi (1975), Oʻzbekiston xalq yozuvchisi (1993), Berdaq nomidagi (1967), Hamza nomidagi (1971), Mahmud Qoshgʻariy nomidagi (1995), Mixail Sholoxov nomidagi (2004) davlat va xalqaro mukofotlarning sohibi boʻlgan. Yozuvchining mehnat va ijodiy faoliyati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, “Shuhrat” medali, “Doʻstlik” va “El-yurt hurmati” ordenlari bilan taqdirlangan. Toʻlepbergen Qaipbergenov yaratgan asarlar oʻzbek va qoraqalpoq xalqlari madaniyati, adabiyoti tarixida, yangi avlodlarni ota-bobolarning qutlugʻ xotirasi, orzu-intilishlariga sadoqatli vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda oʻziga xos maktab boʻlib qolaveradi. Oʻzbekiston Milliy kutubxonasida Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq yozuvchisi Toʻlepbergen Qaipbergenov tavalludining 85 yilligiga

bag'ishlangan kitobli ko'rgazma va bibliografik ko'rinish tashkil qilindi. 12 may kuni O'zbekiston Milliy kutubxonasida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qayipbergenov tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan kitob-rasmi ko'rgazma va bibliografik obzor tashkil qilindi. To'lepbergen Qayipbergenov o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida o'z o'rnini, o'z ovozi, ijodiy salohiyatiga ega bo'lgan adiblardandir. Uning yarim asrdan ko'proq vaqt davomidagi ijodiy faoliyati, yuksak badiiy qimmatga ega asarlarini chin ma'nodagi fidoyilik mahsuli, deyish mumkin. To'lepbergen og'a adabiyot olamiga she'r bilan kirib kelgan edi, keyinchalik nasrga qo'l urib, qoraqalpoq adabiyotida o'ziga xos maktab yarata oldi. Dastlabki hikoyalari va ocherklari "Bloknot so'zlaydi" nomi bilan chop etilib, zamondoshlariga manzur bo'lsa-da, bundan yozuvchining ko'ngli to'lmadi. Adibning badiiy mushohadalari chuqurligi va kengligi tom ma'noda uning qissa va romanlarida namoyon bo'ldi. "Salom, muallim", "Kotib" qissalari bilan "So'nggi hujum", "Qoraqalpoq qizi" romanlari kitobxonlarning sevimli asarlariga aylandi. To'lepbergen Qayipbergenovning ana shu jasorati, o'z xalqiga bo'lgan sadoqati mahsuli o'laroq, "Mamanbiy afsonasi", "Baxtsizlar", "Gumrohlar" romanlari va "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi yaratildi. Asar o'zbek va rus tillarida chop etildi. To'lepbergen og'aning so'nggi yillarda chop etilgan "Qoraqalpoqman, tavakkalchiman", "Qalbimning qomusi" asarlarida umr bo'yi ko'rgan- kechirganlaridan xulosalarni yoshlarga o'git-nasihatlar sifatida bayon etdi. Ko'rgazmada shoir Shukur Qurbon kitobxonlarga To'lepbergen Qayipbergenovning shaxsiyati, shuningdek, uning qalamiga mansub mashhur asarlari haqida gapirib berdi. To'lepbergen Qayipbergenov to'g'risidagi kitoblar, yozuvchi xususida ma'lumotlar namoyish etildi. Tashrif buyurganlar To'lepbergen Qayipbergenovning respublikamizda chop etilgan adabiyotlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Kaipbergenovning birinchi kitobi 1958 yil dunyo yuzini ko'rgan. Ketidan 80 dan ortiq asarlari chop etilib, rus, o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uning "Qoraqalpoq qizi" kitobi asosida "O'zbekfilm" studiyasi tomonidan vatanimizning yetakchi aktyorlari ishtirokida badiiy film suratga olingan. Oltin fondga tegishli bo'lgan asar orqali muallif kitobxonni XX asr boshidagi qoraqalpoq hayot tarzi va oilaviy-turmushning alohida jihatlari bilan tanishtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yozuvchi haqida uning hayot yo'li haqida ko'plab fikrlar yuradi. Ko'pchilik yozuvchi va adiblar bu inson haqida iliq fikrlar bildiradi. Xususan, Yangiboy Qo'chqorov bilan suhbat davomida adibning o'jar bo'lganligi va u kundalik tutib har kungi hayotidagi voqealarni o'z kundaligida yozib borganligini aytadi: „Ikki masalada baxslashsak, birini ma'qul ko'rgan ikkinchisini rad etgan paytlar bo'lgan.... 1980 yildan boshlab To'lepbergen og'a har kunini kundaligiga yozardi. Barcha tafsilotlari bilan Hozir uyida 29 tom kundalik bor. Siz bunga xayron bo'lyapsiz. Bir taniqli ozorbayjon shoiri 54 yil kundalik tutgan. To'lepbergen og'a vafotimdan 15 yil keyin ochinglar, deb vasiyat qilgan. 2025-yil ochilishi lozim. Shunday,shoirimiz borligidan faxrlansak arziydi